


## RANGLARINING INSON PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI



## FAZLIDDINOVA MUQADDAS ELYOR QIZI

Toshkent davlat pedagogika universiteti

“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo’nalishi talabasi

## ANOTATSIYA

Ushbu maqolada ranglarning inson psixologiyasiga ta’siri, ularga yashiringan turli ramzlar, ruhiy olamga bog‘liqligi, fe’l-atvor va bu borada kayfiyatga ijobiy yoki salbiy ta’sir o’tkazuvchi omillar haqida so‘z boradi.

**KALIT SO’ZLAR:** ranglar psixalogiya, hissiy idrok, rang, psixika, kontrast ranglar, tarkibiy ranglar.

## THE IMPACT OF COLOURS ON HUMAN PSYCHOLOGY

## ANNOTATION

This article discusses the impact of colors on human psychology, the various symbols hidden in them, their connection to the spiritual world, character, and the factors that positively or negatively affect mood in this regard.

**KEYWORDS:** color psychology, emotional perception, color, psyche, contrasting colors, structural colors.

## ВЛИЯНИЕ РЕЙТИНГОВ НА ПСИХОЛОГИЮ ЧЕЛОВЕКА

## АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о влиянии цветов на психологию человека, различных символах, скрытых в них, их связи с духовным миром, характером, а также факторах, положительно или отрицательно влияющих на настроение в этом плане.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** Психология цвета, эмоциональное восприятие, цвет, психика, контрастные цвета, структурные цвета.

Dunyo cheksiz sir-sanoatlardan iborat. Ulami o‘rganish uchun cheksiz inson umr kerak bo‘ladi. Chunonchi, «rang» atamasi to‘rtta harfdan iborat bo‘lsa-da, uning ma’nosiga va sirli olamini o‘rganishiga insonlarning umri yetmaydi. Rang inson hayotida muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun asrlar davomida olimlar tomonidan ranglar haqida juda ko‘p ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Inson umrining har lahzasida uchraydigan rang insonlarning ma’naviyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Chunki, rang ruhiyatga har daqiqada ijobiy yoki salbiy ta’sir etishi mumkin. Yorug‘lik bor joyda rang bo‘ladi.



Ranglar insonlarda muayyan his-tuyg‘ularni yuzaga keltirishga qodir xususiyatga ega. Albatta, bunda insonning yoshi, jinsi va madaniy saviyasiga bog‘liq jihatlarni ham e’tiborga olish lozim. Ranglar psixologiyasini tadqiq qilishga oid izlanishlar zamонави psixologiya sohasida o‘tkazilmoqda. Ularda asosan ranglarning inson kayfiyatiga, xulq-atvoriga va psixik jarayonlariga ta’sir qilish mexanizmlari ochib berishga urinishlarni ko‘rishimiz mumkin. Shu o‘rinda, ranglarga doir o‘ziga xos qirralarning mavjudligini ham inkor etmaslik lozim.

Ranglar psixologiyasining talqini oltita tamoyilga asoslanadi:

1. Har bir rang muayyan belgini ifodalaydi.
2. Ranglarning belgilari yoki o‘zlashtirilgan belgiga yoki tabiiy nasliy belgiga tayanadi.

3. Ranglarni idrok qilish inson tomonidan baholashni namoyon qiladi.
4. Ranglarni baholash jarayoni muayyan xulq-atvorga undaydi.
5. Rang odatda o‘z ta’sirini avtomatik ravishda amalga oshiradi.
6. Rangning belgisi va samarasi o‘zaro bog‘liq bo‘ladi.

Ranglarning inson ruhiyatiga o‘ziga xos ravishda ta’sir qilishi tan olingan haqiqatdir. Bizni o‘rab turgan ranglar olami ruhiyatimizga va ruhiy holatimizga

<b>Белый</b> HEX: #FFFFFF, RGB: 255,255,255	<b>Черный</b> HEX: #000000, RGB: 0,0,0	<b>Фиолетовый</b> HEX: #8000FF, RGB: 139,0,255	<b>Зеленая лужайка</b> HEX: #7CFC00, RGB: 124,252,0
<b>Красный</b> HEX: #FF0000, RGB: 255,0,0	<b>Цвет морской волны (Цинан)</b> HEX: #00FFFF, RGB: 0,255,255	<b>Аквамариновый</b> HEX: #7FFFDA, RGB: 127,255,212	<b>Розовый "Пощекочи меня"</b> HEX: #F89AC, RGB: 252,137,172
<b>Желтый</b> HEX: #FFFF00, RGB: 255,255,0	<b>Синий</b> HEX: #0000FF, RGB: 0,0,255	<b>Аметистовый</b> HEX: #9966CC, RGB: 153,102,204	<b>Блестящий желтовато-зеленый</b> HEX: #6CCB5E, RGB: 140,203,94
<b>Бирюзовый</b> HEX: #00D5C8, RGB: 48,213,200	<b>Клубнично-красный</b> HEX: #D53032, RGB: 213,48,50	<b>Барвинок (Первомай)</b> HEX: #CCCCFF, RGB: 204,204,255	<b>Лимонно-кремовый</b> HEX: #FFFFCC, RGB: 255,255,204
<b>Зеленый</b> HEX: #008000, RGB: 0,128,0	<b>Пурпурный</b> HEX: #800080, RGB: 128,0,128	<b>Бронзовый</b> HEX: #C07F32, RGB: 205,127,50	<b>Темно-голубой</b> HEX: #3B88BD, RGB: 59,131,189
<b>Голубой</b> HEX: #42AAFF, RGB: 66,170,255	<b>Неоново-морковный</b> HEX: #FFA343, RGB: 255,163,67	<b>Верделешевый</b> HEX: #DAD871, RGB: 218,216,113	<b>Умеренный эспидно-синий</b> HEX: #7B68EE, RGB: 123,104,238
<b>Оранжевый</b> HEX: #FFA500, RGB: 255,165,0	<b>Похожий цвет: Синий Градуса</b> HEX: #005AFF, RGB: 0,90,255	<b>Жемчужность</b> HEX: #CB6586, RGB: 203,101,134	<b>Умеренный аквамариновый</b> HEX: #66CDAA, RGB: 102,205,170
<b>Розовый</b> HEX: #F00CB, RGB: 255,192,203	<b>Ланг</b> HEX: #07FCEC, RGB: 199,252,236	<b>Изумруд</b> HEX: #009B77, RGB: 0,155,119	<b>Бургундский</b> HEX: #900020, RGB: 144,0,32

Dunyoda yorug‘lik bor ekan, albatta ranglar bo‘ladi. Har bir rangning ramziy ma’nosi bor. Qadimda ajdodlarimiz rang orqali ramziy ma’noda gapirganlar. Insonlarning yuzi rangiga qarab kasalliklarini aniqlaganlar va davolaganlar. Ranglar orqali falsafiy fikr bergenlar va insonlarga ruhiy ta’sir etganlar. Masalan, sallaning turli rangi bo‘lib, ular orqali turli ramziy ma’nolar o‘z ifodasini topgan. Rangiga qarab тарови, мажнуби иш низомини билish тарзини бўлган.

Красный	Желтый	Зеленый	Синий	Розовый	Фиолетовый / Purple	Оранжевый	Коричневый	Черный	Белый
Похоть [48]	Компетентность [46]	Хороший вкус (F) [48]	Утонченность [46]	Авторитет (И) [48]	Теплота (И) [48]	Прочность [46]	Горе [48]	Счастье (И) [48]	Искренность (И) [48]
Сила (И) [50]	Счастье (И) [48]	Зависть [48]	Компетентность [46]		Утонченность [46]	Волнение [49]		Утонченность [46]	Чистота [48]
Волнение (И) [48]	Недорого (F) [36]	Экологичный (F) [51]	Высокое качество (F) [48]	Женственность и кокетство [48]	Сила [48]			Дорого (F) [48]	
Любовь (И) [48]	Низкое качество (F) [38]	Здоровье [51]	Корпоративное (F) [48]					Страх (страхи) [48]	
Скорость (бл) [3]		Деньги (F) [52]	Надежность (F) [36]						
Гнев (Я) [53]									



Ranglar psixologiyasi ranglarning odamlarning xulq-atvoriga, ruhiy holatiga yoki fiziologik jarayonlarga qanday ta'sir qilishini o'rgatadi. Ranglar bizning xaridlarimizga, his-tuyg'ularimizga va hatto xotiralarimizga ta'sir qiladi. Rang psixologiyasi bilan bog'liq fikrlar marketing va dizayn sohalarida keng qo'llaniladi. Kompaniyalar o'z mahsulotlarini xarid qilish va tovarlarni anglashni yaxshilash uchun iste'molchilarни rag'batlantiradi deb hisoblaydigan ranglarni tanlaydi. Turli xil kasallikkarni davolash uchun rangi terapiya uslubida ranglar ishlatalgan.

Fransuz tarixchisi, medievist va ranglar simvolikasining taniqli mutaxassis Miшел Pasturoning "Ko'k rangning tarixi", "Qora rangning tarixi", "Yashil rangning tarixi", "Qizil rangning tarixi" kabi kitoblari ranglarning madaniy evolyutsiyasini chuqur o'rghanishga bag'ishlangan. "Yashil rangning tarixi" nomli kitobi madaniy, ijtimoiy, diniy va badiiy jihatlari qamrab olingan. Miшел Pasturo yashil rangning qadim zamonlardan to hozirgi kungacha bo'lgan o'rghanish yo'lini tahlil qilgan, uning turli davrlarda qanday ma'nolar va ramziy ahamiyatga ega bo'lganligini ko'rsatgan.



Xulosa qilib aytganda ranglar inson psixikasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi va ular his-tuyg'ular, kayfiyat va psixologik holatlarni shakllantirishi mumkin. Har bir rang turli hissiy reaksiyalarni keltirib chiqaradi. Ranglarning psixologik ta'siri shundan iboratki, ular odamlarning hissiy holatlarini anglatadi va ular bilan ishslash orqali muayyan kayfiyatni yaratish yoki boshqarish mumkin.

Ranglar dunyomizning barcha elementlarini o'zida mujassam etgan. Subliminal tarzda foydalanilganda, ranglar bizning his-tuyg'ularimizga va psixologiyamizga kuchli ta'sir qiladi. Ular bizni baxtli, qayg'uli, g'ayratli, xotirjam his qildira oladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. G.M. Abdurahmonov. "Rangtasvir va kommunikatsiya". Toshkent. 1995.
2. B. Boymatov "Qalamtasvir". Darslik 1-qism. Toshkent. 2006.
3. N. Tolipov Abdirasilov S. Oripova N. Rangtasvir 1-qism. Toshkent 2002
4. N.U. Abdullaev. San'at tarixi 2 jild.T. 2001-yil. 296 b.  
Н.Абдуллаев. Санъат тарихи.ўкув қўлланма. 2004.
5. D. Tulanova Tasviri . san'at tarixi (darslik) T."Lesson Press" nashriyoti.2019 y.
6. N.Abdullayeva. "San'atshunoslikdan ommabop lug'at". Toshkent 2010.
7. N. Yusupova "Ranglarga yashiringan sirlar" Toshkent "Davr Press" nashriyoti. 2010.
8. M. Yuldasheva. Z. Saminjonova. "Ranglarning psixologik tabiat". Uslubiy qo'llanma. Farg'ona. 2023.